




## Vazirlar Mahkamasini Qarori

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida**

---

**VMQ-709-son, 22.11.2021 y.**



**2021-yil 24-noyabrda**

“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” VMQ-709-son Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.




## Qarorga asosan

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari oraliq qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish **uchun yuridik va jismoniy shaxslarga bir yilgacha** bo'lgan muddatga ikkilamchi ijaraga beriladi.

Ikkilamchi ijaraga berish shartnomalari vakolatli organ tomonidan elektron axborot tizimi orqali ikkilamchi ijara shartnomalari reyestrda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Ikkilamchi ijaraga oluvchi "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan bo'lsa, **to'lov undirilmaydi.**



## **Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari ikkilamchi ijaraga berish shartnomasi**

- Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari ikkilamchi ijaraga ixtiyoriylik asosida ikkilamchi ijaraga beruvchining tashabbusi bilan ikkilamchi ijaraga oluvchining roziligiga ko'ra faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish maqsadida beriladi.
- Shartnoma ikkilamchi ijaraga beruvchi va ikkilamchi ijaraga oluvchi o'rtasida yozma shaklda, qog'oz yoki elektron hujjat shaklida tuziladi.
- Qog'oz shaklidagi shartnoma kamida 4 nusxada tuziladi,



## Quyidagi hollarda shartnomani davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etiladi:

- murojaat vakolatsiz shaxs tomonidan imzolangan yoki umuman imzolanmagan;
- ikkilamchi ijaraga berilayotgan yer uchastkalariga bo'lgan ijara huquqi ijaraga beruvchiga tegishli bo'lmaganda;
- yerga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilmaganda;
- to'lov amalga oshirilmaganda;
- yer uchastkasini ikkilamchi ijaraga berish mumkin bo'lmaganda.





## Qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yer uchastkalarini ajratish

Qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yer uchastkasi **O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksida** belgilangan muddatlarga ijaraga beriladi.

### Yerlar quyidagi hajmlarda ijaraga beriladi:

- sabzavot-polizchilik yo'nalishiga — kamida **3 gektar**;
- chorva ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda sug'oriladigan yerlardan — kamida **0,3 gektar**, lalmikor yerlardan — kamida **1 gektar**, yaylovlar va pichanzorlardan — kamida **2 gektar**;
- g'allachilik va sabzavotchilik yo'nalishiga — kamida **10 gektar**;
- sun'iy suv havzalarida baliq yetishtirishga — kamida **0,01 gektar**.




## Har yili 1-noyabrgacha

Hokimliklar dehqonchilik tashkil qilish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish loyihalarini tayyorlaydi.

Jismoniy va yuridik shaxlar bo'sh yerlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq tanlovga qo'yish yuzasidan **"E-IJARA"** tizimiga takliflar kiritishi mumkin.

Takliflar **5 ish kunida** o'rganilib kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun hokimliklarga yuboriladi yoki taklif rad etiladi.

Yerga kadastr hujjati Kadastr boshqarmasi tomonidan 5 ish kunida rasmiylashtiriladi va ma'lumotlar **"E-IJARA"** tizimiga joylashtiriladi.



**E'tiboringiz uchun rahmat!**